



IQTISODIY TIZIMLARDA NORASMIY YASHIRIN IQTISODIYOTNING O`RNI

Sobirova Hilola Rustam qizi

Iqtisodiyot va Moliya vazirligi huzuridagi Soliq qo'mitasi
Strategik rejalashtirish departamenti

Xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash hamda iqtisodiy integratsiya
boshqarmasi davlat soliq katta inspektori

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7805124>

ARTICLE INFO

Received: 27th March 2023

Accepted: 05th April 2023

Online: 06th April 2023

KEY WORDS

Yashirin iqtisodiyot, taraqqiyot, rejali iqtisodiyot, norasmiy faoliyat.

ABSTRACT

Har qanday faoliyatning ko`zga ko`rinmaydigan, yashirin va norasmiy jihatlari bo`ladi, shu jumladan iqtisodiyotda ham. Ushbu maqolada bu faoliyatning mohiyati, o`ziga xosligi hamda ahamiyati muhokama etiladi.

KIRISH

Ba`zilar uni iqtisodiy taraqqiyot, davlat iqtisodiyoti boshqaruviga salbiy ta`sir o`tkazish va jinoyiy faoliyat yuritilishining negizini tashkil qilishda to`laligicha ayblab, salbiy baholasa, iqtisodiyotning yangi yo`nalishlariga asos soluvchi va innovatsiyalar avvalambor yashirincha, keyin esa rasmiy taraqqiy etishini e`tirof etuvchi mutaxassislar ham mavjud.

O`z fuqarolariga ma`lum bir majburiyatlar yuklovchi va cheklovlar o`rnatuvchi davlat paydo bo`lishi bilan «ijtimoiy kelishuv»ni pisand qilmaydigan shaxslarning davlatdan tashqari faoliyati – yashirin iqtisodiyot vujudga keladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Industriallashtirishgacha bo`lgan rivojlanish sharoitlarida – osiyocha ishlab chiqarish usuli hukmron jamiyatlarda – yashirin iqtisodiy faoliyatning har uchala turi uchraydi. «Suvda suzib yurgan baliq suv ichmoqdam yoki yo`qmi aniqlash qanchalik qiyin bo`lsa, amaldorning davlat mulkini o`zlashtirayotganini ham aniqlash shunchalik qiyindir». Bunday fikrlar yana ko`pgina avlodlarda Misrdan Xitoygacha bo`lgan hududda keng tarqalgan edi. Davlat boshqaruvi ilmi to`g`risidagi sharq traktatlarida davlat cho`ntagi bilan o`z cho`ntagini adashtiradigan amaldorlarning riboxo`rligi (poraxo`rligi) ustidan arzlari juda ko`p uchraydi. Xitoy jamiyatshunoslik fikrida yuksak yodgorlik hisoblangan – «Yan te lun» («tuz va temir to`g`risida bahs») xo`jalik yuritishning norasmiy («kulrang») sektori to`g`risidagi eng qadimgi «stenogramma» (miloddan avvalgi 81 yil) sifatida qabul qilinishi mumkin: tuz va temirga davlat monopoliyasi ushbu noyob mahsulotlarni ommaviy ravishda yashirib ishlab chiqarishga olib keldi. «Qora» yashirin iqtisodiyotga misol qilib papiruslarda yozilgan Qadimgi Misrdagi maqbaralarni talon-taroj qiluvchilar faoliyatini keltirish mumkin [1].

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

“Yashirin iqtisodiyot” davlat va jamiyat taraqqiyotiga salbiy ta`sir ko`rsatib, qonuniy tadbirkorlik faoliyatini yuritayotganlar bilan yashirin faoliyat faoliyat bilan shug`ullanadigan shaxslar o`rtasida nohalol raqobat kuchayishiga xizmat qiladi. Agar u bilan samarali kurash



olib borilmasa bu mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvol, qonun ustuvorligiga putur yetkazib, korrupsiya, ishsizlik va boshqa iqtisodiy-ijtimoiy muammolar ko'payishiga hamda davlat va jamiyat xavfsizligiga rahna soladi.

Umuman olganda "yashirin iqtisodiyot"ni qisqartirish, uni rasmiy sektorga o'tkazish va unga qarshi samarali kurashishning bir necha yo'llari mavjud.

Mamlakat iqtisodiy taraqqiyoti "yashirin iqtisodiyot"ning qisqarishiga olib kelsa [3], elektron to'lovlar ustunlik qiluvchi mamlakatlarda "yashirin iqtisodiyot" ulushi kichik bo'ladi [4], ayni paytda raqamli iqtisod "yashirin iqtisod" muammosini hal qilishi mumkin. Boshqa bir tadqiqotda korrupsiyaga qarshi kurashish "yashirin iqtisodiyot"ga qarshi kurashishning eng samarali usuli sifatida qayd etilgan.

Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti tomonidan yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish uchun 3 ta asosiy yo'nalishlar – soliq to'lovchilarni o'qitish va qonunga itoatkorlikni soddalashtirish, yashirin faoliyat bilan shug'ullanish imkoniyatlarini kamaytirish va fosh etish imkoniyatlarini oshirish, ijtimoiy normalarni mustahkamlash tavsiya etilgan.

Shuni inobatga olib, mazkur maqola doirasida "yashirin iqtisodiyot"ni qisqartirish va bartaraf etishning ayrim tashkiliy-huquqiy jihatlariga to'xtalib o'tiladi.

Birinchi yo'nalish, naqd pullik to'lovlar bilan bog'liq bo'lib, bu eng katta xavflardan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda naqd pul aylanmasi miqdorining kattaligi esa xufiyona iqtisodiy faoliyat yanada rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Ayniqsa katta denominatsiyadagi kupyuralar, shu jumladan xorijiy valyutadagi kupyuralar jinoiy daromadlarni legallashtirish yoki aktivlarni mamlakatdan noqonuniy olib chiqish uchun qulay vosita sifatida foydalanilishi mumkin. Zamonaviy texnologiyalarning kirib kelishi, yangi kriptovalyutalar, blokcheyn texnologiyalari orqali amalga oshirilayotgan yangi va nomarkazlashgan tovar va xizmatlarni ayirboshlash esa bunday xavfni yanada oshiradi.

Ikkinchi yo'nalish, ayrim iqtisodiy qilmishlar uchun milliy qonunchiligimizda bevosita, ya'ni to'g'ridan-to'g'ri jinoiy javobgarlik nazarda tutilmaganligi va u bilan bog'lik xavflar mavjud.

Joriy yildan amalga kiritilgan yangi tahrirdagi Soliq kodeksiga muvofiq ortiqcha to'langan va ortiqcha undirilgan soliqlarni hisobga olish hamda qaytarish, shuningdek ortiqcha undirilgan soliq summasiga foizlar to'lash mexanizmlari joriy etilmoqda. Bu esa ayrim shaxslar tomonidan mazkur mexanizmni suiste'mol qilish orqali *soliqqa oid firibgarliklar* sodir etilishiga olib kelishi mumkin.

Shu sababli, aksar xorijiy davlatlarda (Sloveniya, Fransiya, Germaniya) g'ayriqonuniy ravishda soliqlar ortiqcha to'langanligi yoki undirilganligi to'g'risida murojaat qilib, ularni qaytarib olish bilan bog'liq firibgarliklar uchun jinoiy javobgarlik belgilangan.

Shuningdek, AQSh, Germaniya, Kanada, Singapur, Yaponiya, Filippin, Tayland va boshqa ko'plab davlatlarda barcha g'ayriqonuniy qilmishlar (pora olish, firibgarlik, moliyaviy piramida va h.k.) natijasidan olingan *noqonuniy daromadlar* musodara qilinishi bilan birga ularga qo'shimcha ravishda soliq hisoblanib, soliq to'lovlari belgilangan muddatda amalga oshirilmaganligi yoki soliq to'lashdan bo'yin tovlanganligi uchun shaxslar tegishli ma'muriy yoki jinoiy javobgarlikka tortiladi.

Mazkur amaliyotni O'zbekistonda ham joriy etish yuzasidan huquqiy jihatdan cheklov mavjud emas.



Xorijiy davlatlarda ro'yxatdan o'tmasdan noqonuniy ravishda moliyaviy operatsiyalarni (pul o'tkazmalari, qarz, kredit, lizing va h.k.) amalga oshirish uchun javobgarlik belgilangan. Jumladan, Turkiyada foyda olish maqsadida noqonuniy ravishda qarz berganlik uchun jinoiy javobgarlik mavjud. Shundan kelib chiqib, foyda olish maqsadida noqonuniy ravishda moliyaviy xizmatlarni (qarz, kredit, lizing, pul o'tkazmalari) taqdim etganlik uchun javobgarlikni belgilash taklif qilinadi.

Global miqyosda yashirin iqtisodiy faoliyat yuritish xavfi yuqori bo'lgan *tashqi iqtisodiy faoliyat* bilan bog'liq ayrim qilmishlar, xususan noqonuniy import qilinganligi shaxsga ayon bo'lgan holda mazkur tovarlarni yashirish, o'tkazish, realizatsiya qilish uchun Finlyadiyada jinoiy javobgarlik belgilangan. Biroq, mamlakatimizda bu kabi huquqbuzarlik uchun to'g'ridan-to'g'ri javobgarlik mavjud emas.

Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, yuqorida keltirib o'tilgan ayrim qilmishlar uchun jinoiy javobgarlikni kiritish nafaqat zamon talabi, balki O'zbekiston ishtirokchisi bo'lgan xalqaro shartnomalar doirasida davlat o'z zimmasiga olgan majburiyatlardan hisoblanadi.

Uchinchi yo'nalish, *yashirin iqtisodiy faoliyatga qarshi kurashish bo'yicha* jazo turlari va boshqa huquqiy ta'sir choralarining samaradorligi *masalasiga borib taqaladi*. *Shaxs huquqbuzarlikning aniqlanishi ehtimoliga qarab huquqbuzarlik sodir etishi, bunda jazo sanksiyasi miqdorining ahamiyatsizligi, shu sababli sanksiyalarni kuchaytirish emas, balki shaxsning huquqbuzarlik uchun albatta javobgarlikka tortilishi muqarrarligini ta'minlash muhim ekanligi aniqlangan.*

Buni xorijiy davlatlarda iqtisodiy huquqbuzarliklar uchun keng turdagi jazo choralarining samarali qo'llanilishi misolida ham ko'rish mumkin. Xususan, yuridik shaxslarning jinoiy javobgarligi, javobgarlikka tortishda differentsiatsiya (tabaqalashtirish), jazo sifatida mol-mulkni musodara qilish, ommaviy axborot vositalari orqali shaxslarni sharmanda qilish huquqiy ta'sir choralarining belgilanganligi yashirin iqtisodiy faoliyatga qarshi kurashish samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Irlandiyada iqtisodiy huquqbuzarlik uchun javobgarlikka tortish tizimi shaxsning huquqbuzarlikni ixtiyoriy bartaraf etishiga qaratilgan. Ayni bir huquqbuzarlik uchun sanksiyalar nazorat qiluvchi yoki huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlik qilganlik, huquqbuzarlik oqibatlarini ixtiyoriy bartaraf etganlik va huquqbuzarlik takrorlanishi darajasiga qarab differentsiatsiya kilinadi.

Shu sababli, iqtisodiy huquqbuzarliklarni fosh etish va bartaraf etishda shaxsning ishtiroki darajasiga (hamkorlik) qarab javobgarlik choralarini differentsiatsiya kilish hamda yanada liberallashtirish lozim. Bu har ikki tomon o'rtasida o'zaro hurmat, ishonch va samarali muloqot o'rnatish uchun huquqiy zamin yaratadi.

To'rtinchi yo'nalish, *yashirin iqtisodiy faoliyatga qarshi kurashish va oldini olishda jamoatchilik nazorati mexanizmlari imkoniyatlaridan unumli foydalanishni talab etadi.*

Olib borilgan tadqiqotlar yashirin iqtisodiy faoliyatga qarshi kurashish va oldini olishda nazoratni kuchaytirish va tekshiruvlar sonini ko'paytirish moliyaviy xarajatlar va resurslarni (inson, vaqt, texnologik va h.k.) safarbar etishni talab etishi, barcha resurslarni iqtisodiy huquqbuzarliklarni aniqlashga safarbar etishning imkoni yo'qligi va nazoratni kuchaytirishning samaradorligi pastligini e'tirof etadi.



Mazkur muammolarni kam xarajat talab etadigan boshqa chora-tadbirlar, xususan qonunga itoatkorlik madaniyatini oshirish, komplayans instituti imkoniyatlaridan samarali foydalanish, sodir etilgan huquqbuzarliklar to'g'risida ixtiyoriy xabar berilishiga erishish, huquqbuzarliklarga jamoatchilik nazorati mexanizmlari orqali qarshi kurashishga ustuvorlik beriladi.

Jumladan, Irlandiyada xufiyona iqtisodiyotga qarshi kurashishda nazorat qiluvchi organlar *jamoatchilik nazorati* mexanizmlari va insofli soliq to'lovchilar yordamiga tayanishi e'tirofga loyiq. Bunda soliqdan qochish va nosog'lom raqobat hollari haqida fuqarolar, tadbirkorlar, jamoat birlashmalari, kasaba uyushmalariga turli vositalar orqali elektron, og'zaki yoki yozma shaklda, shu jumladan anonim tarzda xabar berish imkoniyati berilgan va murojaatchilarning shaxsi oshkor qilinmaydi.

XULOSA VA MUNOZARA

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, iqtisodiyotning xavfsizligi nuqtai nazaridan yashirin iqtisodiyotga oid ilmiy va amaliy tadqiqotlarni muntazam olib borish lozim. Uni rasmiylashtirish borasida ko'proq ma'muriy emas, balki shunday iqtisodiy mexanizmlarni ishlab chiqish va joriy qilish lozimki, iqtisodiyotning barcha sub'ektlari uchun iqtisodiyotning yashirin qismida emas, balki to'liq rasmiy faoliyat yuritish kattaroq naf keltirsin. Bu masala nafaqat o'ta murakkab, balki barcha MDH davlatlari uchun o'ta dolzarb hamdir.

References:

1. Latov Yu.V., Kovalev S.N. Yashirin iqtisodiyot: Universitetlar uchun darslik. / ostida. ed. d.p.s., d.j.s., prof. V.Ya.Kikotyа; Iqtisodiyot fanlari doktori, prof. M.Qoziahmedov. - M. : "Norma", 2016 yil.
2. Shestakov A.V. yashirin iqtisodiyot. - M.: "Dashkov va K" nashriyoti, 2010. -b. 152.
3. Arthashastra yoki siyosat fani: sanskrit tilidan tarjimai va nashri V.I.Kalyanov tomonidan tayyorlangan. - M., 2013 yil.
4. Timofeev L.M. institutsional korruptsiya. - M.: nashriyot uyi: RGGU, 2010. -b. 231.
5. Рашидов, Д. (2022). TRANSPORT KORXONALARI UCHUN NOGIRONLAR TOMONIDAN ISHLAB CHIQRILAYOGAN MAXSUS KIYIMLAR VA BOSHQA MAHSULOTLAR XARIDINI KO 'PAYTIRISH ORQALI NOGIRONLAR MEHNATINI RAG'BATLANTIRISH. *Scienceweb academic papers collection*.